

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com



ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатиغا мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

ABDULLAYEVA Ra'no Rasulovna
Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10646997>

OVOZNI QO'YISH BO'YICHA BOSHLANG'ICH DARSLARGA QO'YILGAN TALABLAR

ANNOTATSIYA

An'anaviy ijrochilikda xonandalar ijro etgan ashulalarning tinglovchilar ruhiyatiga har tomonlama hissiy ta'siri juda kattadir. Bunga sabab, ohangning so'zlar bilan bevosita bog'liqligi va xonandaning ijro uslubidir. Shuning uchun ham xonanda-ijrochi o'zining ichki his tuyg'ularini tinglovchilarga izhor qilishi uchun ijrochilik qoidalarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Mazkur maqolada maqom ta'limida xonandalar ovoznini tarbiyalash masalasi pedagogik muammo sifatida yoritilgan bo'lib, ovozni yo'lga qo'yish bo'yicha olib boriladigan boshlang'ich darslarning mazmuni, ovozni yo'lga qo'yish qoidalari hamda o'qituvchiga qo'yilgan metodik talablar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy, mahorat, mashq, saboq, registr, ovoz jarangdorligi, ovoz tembri, ovoz xiralashishi, sayqallantirish, rang-baranglik.

К ЭЛЕМЕНТАРНЫМ ЗАНЯТИЯМ ПО ПОСТАНОВКЕ ГОЛОСА ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ ТРЕБОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В традиционном исполнении песни в исполнении певцов оказывают большое эмоциональное воздействие на психику слушателей. Причиной тому является прямая связь тона со словами и манерой исполнения певца. Именно поэтому певец-исполнитель должен владеть правилами исполнения, чтобы выразить зрителю свои внутренние переживания. В данной статье вопрос повышения голоса певцов в статусном образовании освещен как педагогическая проблема, содержание основных занятий по обучению вокалу, правила обучения голосу, а также указания учителя. Рассмотрены методические требования.

Ключевые слова: творчество, умение, практика, занятие, регистр, громкость, тембр голоса, затухание голоса, шлифовка, разнообразие.

TO ELEMENTARY LESSONS IN VOICE-OVER REQUIREMENTS

ANNOTATION

In traditional performance, songs performed by singers have a great emotional impact on the psyche of listeners. The reason for this is the direct connection of tone with the words and manner of performance of the singer. That is why the singer-performer must master the rules of performance in order to express his inner experiences to the viewer. In this article, the issue of raising the voice of singers in status education is highlighted as a pedagogical problem, the content of basic classes in vocal training, rules for teaching voice, as well as teacher instructions. Methodological requirements are considered.

Key words: creativity, skill, practice, occupation, register, volume, voice timbre, voice attenuation, polishing, variety.

An'anaviy ijrochilikda xonandalar ijro etgan ashulalarning tinglovchilar ruhiyatiga har tomonlama hissiy ta'siri juda kattadir. Bunga sabab, ohangning so'zlar bilan bevosita bog'liqligi va xonanda tanasidagi ovoz hosil qiluvchi apparat jonli musiqa asbobi ekanligidadir. Shuning uchun ham xonanda-ijrochi o'zining ichki his tuyg'ularini tinglovchilarga izhor qilishi uchun cholg'uchilarga o'xshab musiqa asbobiga muhtoj emas. Uning musiqiy asbobi o'z tanasidagi ovoz hosil qiluvchi jonli organi bo'lib, xonanda ashula ijro etayotganda bu organ emotsional fiziologik funksiyalarni bajaradi. Xonanda ijrochi ovozining chuqur va har tomonlama ma'noli bo'lishi uchun ichki kechinmalari, kayfiyati, ruhiyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir.

Buyuk shoirimiz, Cho'lpon ta'biri bilan aytganda, «Adabiyot yashasa - millat yashaydi» - deydi. Hech bir xalq she'riyatini esa, qo'shiqlarsiz to'liq tasavvur qilib bo'lmaydi. Qo'shiq xalqning tili singari muqaddas bo'lib, o'z ohangi yo'q millatni ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

Qo'shiqchi va uning ovozini tarbiyalash buyicha K.S.Stanislavskiy – “ aktyor bilan ishlash metodiga o'xshash qandaydir umumiy metod yaratilmagan, kuylash ustalaridan o'z amaliy faoliyatini nazariy jihatdan chuqur anglashni talab qilish qiyin. Na hofiz, na yozuvchi, na cholg'uchi, na mo'yqalam sohibidan iste'dodi va ulkan tajribasi bo'lsa ham nazariya yaratishni talab qilib bo'lmaydi” – deb ta'kidlagan [1].

Shu holat qo'shiqchilar tayyorlashning “yagona metodini” ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi.

Biroq bu kabi metodni yaratish xonandalardan yuksak uyushqoqlikni talab etadi. Vokal o'qituvchilari kuylash paytida ovoz apparati ishi haqidagi batafsil tekshirilgan ilmiy ma'lumotlarga asoslanishi, ilmiy xulosalarga tayangan «yagona metod” ishlab chiqishi va vokal amaliyotiga tatbiq etishi dolzarb vazifalardan biridir.

Kuylashga o'rgatish foydali, demakki, hamma uchun maqbul metod eng yaxshi vokal pedagoglari va yetuk ijrochilar tajribasi va amaliyotini chuqur, har tomonlama umumlashtirish natijasidagina yaratilishi mumkin. Bunday umumlashtirishda fan ma'lumotlariga tayanishi lozim. Pedagoglardagi ajoyib musiqiy eshitish qobiliyati mavjudligi o'quvchiga ovozning yaxshi yo yomon chiqishini ob'ektiv sabablarini tushunish imkonini bera oladi. Ustiga ustak pedagog va o'quvchining sub'ektiv tuyg'ulari ko'pincha mos kelmaydi. Ovoz (tovush) bo'lishidagi tuyg'ularni so'z bilan ifodalash esa o'ta mushkul. Kerakli ovozni yo'lga qo'yish chog'ida o'z tuyg'ularini sharhlab, pedagog o'quvchida o'xshash tuyg'ularni uyg'otmoqchi bo'ladi. Odatda, bu tovush (ovoz) o'quvchiga aytayotgan tuyg'u va texnik usullar natijasida yuzaga kelganiga ishonadi. Aslida esa tuyg'ular juda aldamchi va individual, o'quvchida ular boshqacha bo'lishi mumkin.

O'z texnik usullari va tuyg'ularini bildirish jarayonida pedagog ko'proq og'zaki tushuntiradi. Bu tushuntirishlar ko'pincha obrazli ifodalalar bo'lib, kuylovchi ovozining yaxshi jarangini yoki bu jarangdorlikni turli sifatlarini xarakterlaydi. O'quvchi esa bu obrazli ifodalarni o'z tuyg'ulari (hislari)da ifodalay olishiga to'g'ri keladi. Hamma vaqt ham o'quvchilar bu xisni eplay olmasligi mumkin.

Kuylash chog'ida ovoz apparati ishi haqida u qadar to'g'ri bo'lmagan tasavvurga asoslangan ta'lim metodlari ba'zida pedagogning amaliy tajribasi hisobiga yaxshi natija berishini inkor etib bo'lmaydi. Biroq bu ko'rsatgich juda past.

Bu metodlar muvaffaqiyatini, aftidan, ayrim qo'shiqchilarning o'z ustozlari ishlatgan mushak usulidan nusxa olish yoki o'z tasavvuridagi ovozning chiroyli chiqishi idealini intuitiv amalga oshira olish qobiliyati bilan izohlash mumkin. Pedagog ovozning yaxshi jarangidan nusxa olib, qo'shiqchi, xatto kuylash jarayonini noto'g'ri sharhlaganda ham o'zining vokal idealiga mos ovozini ta'minlaydigan mushak ko'nikmalarini hosil qiladi.

Biroq qo'shiqchi ovozi yaxshi jarangidan va turli vokal usullaridan nusxa olish ovozni qo'yishning asl amaliy bazasi bo'lganida, kuylashga o'rgatishda qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Qator o'quvchilar borki, taqlid qila oladi, bu metod ularga ancha yordam beradi. Biroq, begona ovoz hosil qilishga yengil moslamsha olmaydigan, taqlid metodini yomon o'zlashtiradigan qo'shiqchilar ham bor. Nihoyat, vokal mexanizmini chuqur o'rganish va anglashga intiladigan qo'shiqchilar bor. Vaqt o'tib, pedagog bo'lishni istagan bu qo'shiqchilar to'g'ri tovush hosil qilishning mohiyatini tushunish va o'zlashtirishga intiladilar. Xonandalikda tovush hosil qilish haqidagi ongli, to'g'ri tasavvurga tayangan metod tobora ishonchli va tushunarli, eng yaxshi metod bo'ladi, deb hisoblash mumkin.

Xonandalikka o'qitishning "yagona metodini" yaratishga kirishishdan oldin barcha xonanda va pedagoglarning kuylash vaqtida ovoz apparati ishi haqidagi to'g'ri tasavvurlari nuqtai nazaridan o'z amaliyotini anglab yetishlariga erishmoq zarur.

Ovozni qo'yish ustida ishlayotgan xonanda o'zining mushak sezgilariga keskin e'tiborni qaratishi lozim. Uni tovush boshlanishida mushak sezgilari, ya'ni uning talaffuzi to'g'ri bo'lishi lozim. Aynan shular xonanda va pedagog eshitishini doimiy nazorat qiladigan ovoz jarangini bevosita belgilaydi. Boshqa mushaklar, masalan, diafragmaga, u yoki bu "nafas olish tiliga" uchragan xonanda ikkinchi darajali standart vokal yo'liga o'tib qoladi [2].

Eng avvalo, ovozning xosil bo'lish sabablari va nima uchun ovozni biror yoqqa "yuborib", "yo'naltirib", "yaqinlashtirib", "yo'qotib", "qo'yib", "o'tkazib" yoki "suyab" bo'lmasligini to'laligicha oydinlashtirib olish zarur. Ovoz funksiyasining bu barcha talablari ovoz sifatiga yoki kuylash chog'ida yuzaga keladigan xonandaning ichki, o'z sezgilarining faqat obrazli tavsiflaydi xolos. Ushbu talablar sezgilar hosil bo'lishi uchun zarur bo'lgan ovoz apparati ishini ta'riflamaydi.

Ovoz o'pkadan qaytayotgan havo oqimiga qarshi turgan ovoz to'qimalari vibratsiyasi natijasida yuzaga keladi. Uni joyidan "olib", "yuborib", "o'tqazib", "yaqinlashtirib" yo "uzoqlashtirib" bo'lmaydi. (Albatta, xonandani tanglaviga yaqinlashtirish mumkin, biroq jarang sifatini bu bilan yaxshilab bo'lmaydi.). Ovozning "yaqin"ligi yo "uzoq"ligi jarangning tashkil etilishi xonanda talaffuzi yordamida hosil qilingan eng yaxshi akustik effektga bog'liq.

Musiqiy ta'limida bo'lajak xonandalarni kasbga tayyorlar ekanmiz, ularning kuylashga taalluqli barcha malakalarini shakllantirib borishga erishish zarur. Qo'shiq kuylashga o'rgatuvchi yakka xonanda, xor rahbari talabalarning har birini ertaga izlab o'quvchilarga vokal sirlarini o'rgatuvchi ustoz sifatida tasavvur qilish, uni kuylash san'atining eng muhim sirlari bilan qo'rollantirishlari lozim.

O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirishda bo'lajak musiqa o'qituvchisining ovozi qanday bo'lishi kerak?, - degan savol tug'ilishi o'z-o'zidan tabiiydir.

O'qituvchining ovoziga qo'yiladigan birinchi navbatdagi talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'qituvchi faqat texnikasini egallabgina qolmay, uning ovozi yoqimtoy va o'quvchilarni o'ziga tortadigan bo'lishi.
2. O'qituvchi biron cholg'u sozida (fortepiano, rubob, dutor va hokazo) o'z-o'ziga jo'r bo'lib kuylay olishi.
3. Cholg'u sozsisiz ham chiroyli, yoqimli tembrda kuylay olishi.

4. O‘z ovoz diapazonining barcha registrlarida (o‘rta, past va yuqori) birday o‘z ovoz tembrini yo‘qotmasdan kuylay olishi.

5. Xirgoyi qilib yoki falset ovozda kuylay olishi.

6. Kuylaganda intervallarni to‘g‘ri talaffuz qilib kuylay olishi.

7. Xalq qo‘shiqchilarida turli qochirimlarni, bezaklarni mahorat bilan qo‘llay olishi.

8. Turli dinamik turlarda kuylay olish mahoratiga ega bo‘lishi.

9. O‘quvchilar bilan muloqotda o‘z ovoz tonini to‘g‘ri tanlay olishi lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan xususiyatlar, vokal o‘qituvchisining kuylash texnikasini qay darajada mukammal egallaganligini ko‘rsatadi. Xilma-xil vokal malakalariga vokal o‘qituvchisi, birinchi navbatda professional o‘qituvchilardan ta‘lim olish jarayonida erishadilar. Xususan, vokal, mumtoz qo‘shiqchilik, xor va xalq qo‘shiqchiligi daralaridan puxta bilim olgan talabalar soatlab kuylash malakalarini ya‘ni chidamlilikni ham o‘rganib boradilar.

Buguni kunda ta‘lim muassasalarida vokal va xor fanlari bo‘yicha bir qator kamchiliklar ham mavjud:

- birinchidan, talabalarning vokal va xor qo‘shiqchiligi bo‘yicha olgan bilimlari hali professional darajaga yetib bormagan va buning sabablaridan biri bu fanlarga ajratilgan dars soatlarining o‘ta darajada kam ekanligida;

- talabalarning olgan bilimlari faqat dars jarayonida egallangan bilimlar, orttirilgan ko‘nikma va malakalar bilan cheklanib qolganligida. Vokal texnikasini egallash uchun, belgilangan mustaqil ishlardan talabalar unumli foydalanayotganligida;

- kuylash texnikasini egallashga, talabalarda bo‘lgan intilishning sustligi.

Ayni paytda, shuni alohida ta‘kidlash lozimki, musiqa o‘quv yurtlarida talabalarga vokal texnikasini egallash bo‘yicha beriladigan professional bilim va malakalar qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilmasin, yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun buning o‘zi yetarli emas. U tizimli ravishda, o‘z ustida ishlab borishi kerak. Professional darajaga erishishi va uni saqlab qolishi qiyin bo‘ladi [3].

Ta‘lim jarayonida kuylash texnikasini egallash bo‘yicha olib boriladigan barcha ishlar bu musiqa o‘qituvchisi uchun o‘ziga xos fundament, poydevor bo‘lib u yosh mutaxassisning professional darajadagi ashulachi, hofiz bo‘lishi uchun o‘ziga xos yo‘nalish vazifasini o‘taydi xolos.

Vokal mutaxassislari talabalarda professionalik malakalarining rivojlanishida, uch davr mavjudligini ta‘kidlashadi:

Birinchi davr - to‘g‘ri ovoz hosil qilish malakalarining dastlabki shakllanish davri bo‘lib, o‘quvchi ovoz hosil qilishni endigina bilib olgan davr hisoblanadi.

Ikkinchi davr - kuylashning hosil bo‘lgan to‘g‘ri yo‘lini saqlab qolish, uni ovoz diapazonining barcha registrlariga joriy etish, ayrim yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni to‘g‘rilab borish va egallangan dastlabki malakani mustahkamlash.

Uchinchi davr - ovoz hosil qilishning endigina shakllangan malakalarini avtomat darajasiga yetkazish, kamchiliklarni tamoman bartaraf qilish, ovoz hosil qilish apparatlarini ishga solishning xilma-xil variantlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

Mumtoz qo‘shiqchilik bilan shug‘ullanayotgan talabalar uchun, ayniqsa uchinchi davrda qilinadigan ishlar ko‘payadi. Ashulachilikka xos milliy bezaklarni qo‘llay olish: nola, qochirim, ovozni yoyish, tebrantirish, tovlantirish, salmoqlab me‘yoriga yetkazish kabi murakkab bezaklardan foydalanishning yangi-yangi variantlaridan foydalanish yo‘llarini izlash yo‘lidagi yangicha harakatlar, xonandaning o‘z mustaqil uslubini yaratishga ham olib kelishi mumkin.

O‘z ustida ishlashni to‘xtatgan hofiz, ashulachi o‘sishdan ham to‘xtaydi. Vokal yoki mumtoz qo‘shiqchining o‘zi ham, o‘z ovozini tarbiyalash ustida tinimsiz ish olib borishi talab etiladi.

Shu o‘rinda mashhur ashulachi Shampinning qo‘shiq kuylashiga xos muhim bashoratini eslatib o‘tish o‘rinlidir. Uning fikricha, har bir ashulachi kuylayotganda o‘z ichiga ikki kishiga bo‘lingandek his qilishi lozim. Birinchi ashulachi sifatida u professional darajada kuylasa, ikkinchi ashulachi sifatida u o‘z ijrosini muntazam nazorat qilib borishi, o‘zining yutuq va kamchiliklarini belgilab, uni tuzatish yo‘llarini o‘ylab borishi lozim. Bu esa, kuylovchiga yanada kattaroq mas‘uliyat yuklaydi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. Xonandalik san'ati. Jahon va o'zbek milliy an'analari. – T.: San'at, 2009. – 248 b.
2. Ayoqo'jaeva Sh.I. Maqom taronalari (janr xususiyatlari, ijro an'analari). Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2007. SITI. M (m) A-11. №1023. – 150 bet.
3. Hamidov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 56 b.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz